



OROMGOH TARBIYACHISI

USLUBIY QO'LLANMA

OROMGOH
kutubxonasi



3

**O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI
BOLALARNING DAM OLISHINI VA SOG'LOMLASHTIRILISHINI
TASHKIL ETISH DEPARTAMENTI**

OROMGOH TARBIYACHISI

Uslubiy qo'llanma



ZARVARAQ NASHRIYOTI

Toshkent – 2025

UO'K 37.018.3(072)

KBK 74.9

A 15

Ro'zimurotov, A.

Oromgoh tarbiyachisi. [Matn]: o'quv uslubiy qo'llanma / T.Abduraxmonov, A.Ro'zimurotov, O.Jamoldinova. – Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2025.- 64 b.

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi o'rinbosari, Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti direktori A.Abdumuxtorovning rahbarligida tayyorlandi.

Ijodiy guruh:

X.Umarov, G.Jo'rayeva, T.Abduraxmonov

Taqrizchi:

O.Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor

Oromgohlarning pedagogik jamoasi rang-barang tadbirlar va mashg'ulotlar orqali bolalarning vaqti mazmunli va maroqli o'tishini ta'minlash bilan bir qatorda ularning yangi muhitga moslashishi, odob-axloqi, xavfsizligi, salomatligi hamda oromgoh kun tartibi va qoidalariga qat'iy rioya qilishida har bir bolaga muhim o'rin tutadi. Bunda, ayniqsa, Katta tarbiyachi va guruh tarbiyachilari faol ishtirok etadi.

Mazkur qo'llanmada oromgoh tarbiyachilarining faoliyat tartibi, mavsum davomida bolalar bilan olib boradigan ishlari, vazifalari haqida ma'lumotlar shuningdek, pedagogik-psixologik tavsiyalar jamlangan. Qo'llanma Tarbiyachilar o'z faoliyatining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan anglab yetish hamda amaliy ko'nikmalari shakllanishiga xizmat qiladi.

SO'ZBOSHI

Hurmatli oromgoh tarbiyachilari!

Avvalo, oromgohlarimizga tashrif buyurgan bolajonlar tarbiyasini sizdek ma'naviyatli, ma'rifatli, mas'uliyatli, talabchan, o'z ishining ustasi, bola qalbini so'zsiz anglaydigan mohir pedagoglarga topshirayotganimizdan mamnunmiz. Ishonamizki, biz bu borada adashmadik, oromgohdagi tarbiyaviy ishlar o'z egalari-ni topmoqda. Siz kelajagimiz umidi, jonajon xalqimizning shirin-dan-shakar bolajonlarini begona bilmay, har biri bilan tezda til topishib, ularga o'z ota-onasi kabi g'amxo'r, aka-opasi kabi masla-hatgo'y, himoyachi hamda do'stlari kabi sirdosh-hamroh bo'lasiz, deya umid qilamiz.

Aslida tarbiya tushunchasi siz-u bizga begona emas. Har qa-damda, har nafasda bu atamaga duch kelamiz: suhbatlarda eshi-tamiz, kitoblarda o'qiymiz, ommaviy axborot vositalarida ku-zatamiz va hokazo. O'zbek jamiyatida, oiladan boshlab, ta'lim dargohlari-yu ish joylarigacha – barida gap avvali tarbiyadan boshlanadi. Chunki inson yaralganki, har qanday davrda, zamon-da va jamiyatda inson tarbiyasi – bosh masala bo'lib kelgan. Do-nish xalqimiz ham farzand tarbiyasida "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" degan naqlga tayanib ish ko'rgan. Ajdodlarimiz odob-axloq va tarbiyani baxtli hayotning muhim sharti deb bil-gan, insoniy ezgu g'oyalarga intilgan, zararli g'oya va illatlardan himoyalangan, har bir shaxs fitratida insoniy tarbiyani saqlab qolishni maqsad qilgan, dunyo hamjamiyatida yuksak axloqi bi-